O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI QORAKO‘L TUMAN HOKIMINING QARORI

Qorako‘l t., Ulug‘bek ko‘chasi 35-uy

2024 - yil 12 - iyul 256-2-37-Q/24 Qorako‘l tuman hokimligi

Qorako‘l tumanida joylashgan mahalla fuqarolar yig‘inlari, korxona, muassasa, tashkilotlar va o‘quv muassasalarida harbiy hisobni va bron qilish ishlarini yuritish hamda tashkillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 martdagi 119-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolarini harbiy ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori talablarini bajarish maqsadida hamda tuman mudofaa bo‘limining 2023 yil 17 maydagi 391-sonli xatini inobatga olib

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman mudofaa bo‘limining 2023 yil 17 maydagi 391-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi barcha mahalla fuqarolar yig‘ini, kimning tasarrufidaekanligidan qat’iy nazar korxona, muassasa, tashkilotlar, shu jumladan ta’lim muassasalarining rahbarlariga:

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Davlat Statistika qo‘mitasi tomonidan belgilangan qoida va shakllar bo‘yicha barcha harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar ro‘yxatining to‘kisligi va sifatliligini ta’minlash;

Qorako‘l tumani hududida joylashgan tashkilot, muassasa, korxona va ta’lim muassasalarida harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy hisobini yuritish va ushbu toifani iqtisodiy tarmoqlariga bron qilish ishlarini tashkillashtirish va olib borishga doir ishlar holatini 2024/2025 yil davomida tekshirish rejasi; (1-ilovaga

asosan)

Harbiy xizmatga majburlar safarbarlik chaqiruvi rezervi va chaqiriluvchilarning oilaviy ahvoli, yashash joyi, texnik va umumta’lim tayyorgarlikdagi o‘zgarishlarni muntazam hisobga olib borish, bu haqida tuman mudofaa ishlari bo‘limiga belgilangan muddatlarda har oyda kamida bir marta ma’lumot berish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan bronlash bo‘yicha ro‘yxatga muvofiq iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun rahbarlar, muhandis-texnik xodimlar, malakali ishchilardan iborat harbiy xizmatga majburlarni o‘z vaqtida bronlashni rasmiylashtirish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish;

har yil dekabr oyida tuman mudofaa ishlari bo‘limiga harbiy xizmatga tayyorlash lozim bo‘lgan chaqiriqqacha yoshdagi o‘smirlar va tuman chaqiruv punktida qayd qilinishi lozim bo‘lgan o‘smirlar ro‘yxatlarini taqdim qilish;

Mudofaa ishlari bo‘limining talabiga binoan harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilarni mudofaa ishlari bo‘limiga kelishlari hamda xabardor qilish va o‘z vaqtida yetib kelishlarida ko‘maklashish;

yangi ishga (o‘qishga) qabul qilinganlar va ishdan bo‘shatilganlar (o‘qishdan chiqarib yuborilgan) barcha harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar haqida 7 kunlik muddat ichida mudofaa ishlari bo‘limiga xabar berish;

fuqarolarni ishga (o‘qishga) qabul qilishda ularda harbiy hisob hujjatlari mavjudligini tekshirish (harbiy xizmatga majburlarda – zaxiradagi ofiser guvohnomasi, harbiy guvohnoma, chaqiriluvchilarda chaqiruv punktida qayd qilinganligi haqida guvohnoma, safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatchilarida-harbiy guvohnoma yoki mudofaa ishlari bo‘limidan berilgan, SCHR da xizmatni o‘tayotganligi haqida ma’lumotnoma) va harbiy ro‘yxatda turish-turmasligini aniqlash;

fuqarolar faqat yashash joylari bo‘yicha harbiy ro‘yxatga qo‘yilganligidan so‘nggina ishga (o‘qishga) qabul qilish topshirilsin.

3. Qorako‘l tumani mudofaa ishlari bo‘limi (Z.Alibayev)ga:

tuman ichki ishlar bo‘limi, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi, surishtiruv va daslabki tergov organlari, tibbiy–mehnat ekspertiza komissiyasi va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, korxona, muassasa,

tashkilotlar, shu jumladan ta’lim muassasalarining rahbarlaridan, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 45-moddasiga amal qilishi yuzasidan majburiyatlar qabul qilish;

Qorako‘l tumani hududidagi o‘zini o‘zi boshqarish organlarida harbiy xizmatga harbiy hisobini yuritish ishlarini tashkillashtirish va olib borishga doir ishlar holatini 2024/25 yil davomida kompleks ravishda tekshirish tartiblarining rejasi; (*2-ilova tekshiruv rejasi bo‘yicha*)

tumanda joylashgan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarida faoliyat yuritayotgan xodimlar bilan harbiy xizmatga majburlar, chaqiriluvchilar va safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatchilarini boshlang‘ich harbiy hisobini yuritish hamda ularning o‘zlariga yuklatilgan majburiyatlarini bajarish bo‘yicha o‘quv uslubiy mashg‘ulot o‘tkazilishini tashkillashtirish (Mudofaa ishlar bo‘limining alohida rejasiga asosan);

korxona, muassasa, tashkilotlar, shu jumladan ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan harbiy hisobni yurituvchi mas’ul xodimlar bilan harbiy ro‘yxat bo‘yicha masalalar va iqtisodiyotning turli tarmoqlarida bronlash hamda ularning o‘zlariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish bo‘yicha o‘quv uslubiy mashg‘ulot o‘tkazilishini tashkillashtirish (Mudofaa ishlar bo‘limining alohida rejasiga asosan) topshirilsin.

4. Tumandagi korxona, muassasa, tashkilotlar va ta’lim muassasalarining rahbarlariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 martdagi 119-sonli qaroriga asosan Qorako‘l tumani Mudofaa ishlari bo‘limiga harbiy hisobni yuritish va bron qilish ishlarini o‘z vaqtida sifatli bajarilishi uchun (jadvalga binoan) bir nafardan malakali ishchi xodimlarni texnik xizmatchi sifatida ajratish topshirilsin.

5. Tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i Z.Alibayevga ushbu qarorning talablarini ichki ishlar bo‘limi, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi, surishtiruv va dastlabki tergov organlari, korxona, muassasa, tashkilotlar, shu jumladan ta’lim muassasalarining rahbarlariga belgilangan tartibda yetkazish topshirilsin.

6. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari H.Elliyev va Tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i Z.Alibayevlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **X.Я.Тоҳиров**

Qorako‘l tuman hokimining
2024-yil 12-iyuldagi
256-2-37-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Qorako`l tumani hududida joylashgan tashkilot, muassasa, korxona va ta`lim muassasalarida harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy hisobini yuritish va ushbu toifani iqtisodiyot tarmoqlariga bron qilish ishlarini tashkillashtirish va olib borishga doir ishlar holatini 2024/25 yil davomida tekshirish

R E J A S I

T/R.	Tashkilot, muassasa, korxona yoki ta`lim muassasasining nomi	Tashkilot raxbari yoki kadrlar bo`limi boshlig`ining telefon raqamlari	Tekshiruv o`tkazish muddati	O`tkazilgan tekshiruv natijalari bo`yicha belgilangan baho	Tekshiruv davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddati	Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgani yuzasidan yo`llangan yozma javob	Tekshiruv tadbirlarini kim o`tkazadi
1.	Qorako`l don mahsulotlari korxonasi	56-57331	17.05.2024				
2.	Obodonlashtirish boshqarmasi	56-52251	13.06.2024				
3.	MK Vatanparvar tashkiloti	56-53580	11.07.2024				
4.	Buxorosuvta’minot” MCHJ tuman filiali	56-51381	15.08.2024				
5.	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi	56-52698	13.09.2024				
6.	Tumani kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	56-51766	10.10.2024				
7.	Tuman irrigatsiya bo‘lim	56-52324	14.11.2024				
8.	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi	56-57345	12.12.2024				
9.	Tuman tibbiyot birlashmasi	56-53516	09.01.2025				

10.	Buxoro Davlat Universiteti Qorako‘l akademik liseyi	56-52351	15.03.2025				
11.	Gazli neft va gazni qayta ishlash boshqarmasi		14.02.2025				